

TONG YULDUZI

№23(66408)
2003 yil
9 iyun
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan

Ofatdan saqlaning

AVVALO OTA - ONA...

Giyohvandlik illatlarning illati,
Undan forig' bo'lsin o'zbek millati.

Ilgarilari ichkilikbozlik, kashandalik eng yomon illat sifatida baholanardi. Bugungi kunga kelib bu so'zlarning o'mini giyohvandlik iborasi egallab oldi. Giyohvandlikni insoniyat boshiga tushgan ofat, desak yanglishmaymiz. Eng achinarli, ayrim yoshlarni ham mana shu illatning quliga aylanib qolishyapti. Ana shunday yoshlarga qarata: «Ey yoshlar, kishiga bir necha daqiqagina huzur bag'ishlovchi bu og'u aslida ich-ichingizni yemirib boruvchi, oxiri o'lim bilan tugashini unutmang. Guldek umringizni hazon qilmang. Bir lahzalik lazzatning ortida chidab bo'lmash azob-uqubatlar borligini uning jabrini tortgan dardmandlardan so'rang», degim keladi. Menimcha, giyohvandlikka ruju qo'yish atrofdagilarning ta'sirida kechadigan jarayon. Yoshlar hamma narsaga qiziquvchan, ishonuvchan bo'lishadi. Har narsani o'z tanasida sinab ko'rishga moyil bo'lishadi. Bolalar noqobil bo'lsa, u keltiradigan zarar eng birinchi ota-onasining zimmasiga tushadi. Shunday ekan, avvalambor farzand tarbiyasiga aziz ota-onalar e'tibor berishlari lozim, deb o'layman. Bolaning qo'liga pul tutqazishdan avval, uni qanday qiyinchiliklar bilan topilishi haqida gapirib berish kerak. Yana bu pullarni nimalarga sarflashini ham tergab turishlari kerak.

Aziz gazetxon, men masalaga bir tomonlama yondoshdim, xolos. Bu haqda sizning fikringiz qanday?

Zarifa YUSUPOVA,

Toshkent viloyati, Chinoz tumanidagi

26 - o'rta matabning 9 - sinf o'quvchisi.

Qishloqqa borganimda, o'zim o'qiydigan sobiq maktabimning hayoti bilan tanishib

bilmadik, sababini surishtirish uchun

ZORA YETIB KELSA

kelay, deb o'quv dargohiga bordim. O'rtoqlarim orasida o'zaro gurunglardan so'ng, gapdan- gap chiqib, obuna masalasiga borib taqaldi.

-O'tgan yili sinf rahbarimiz Rahima opa «Tong yulduzi» ga obuna bo'lish uchun 100 so'mdan pul yig'ib olishgan edi, - dedi Shokir ismli do'stim. Gazeta dastlab o'z vaqtida kelib turdi. Keyinchalik, haftalab, so'ngra oylab ham kelmay qo'ydi. Nima qilishni

Kattalar,
e'tibor
bering!



pochtachi akaning oldiga bordik. U kishi esa «Tong yulduzi» gazetasi kam nusxada chiqayapti, poytaxt dan viloyatlarga kelguncha o'z gazetxonini topib ulguradi, deb aytdi. Biz bu gapga ishonmaymiz. «Tong yulduzi» o'z obunachisini topishi kerak. Siz nima deysiz?

Zokir BOLLIYEV,
Alisher Navoiy nomidagi
Respublika Nafis San'at
litseyining o'quvchisi.

HECH KIM MAG'LUB BO'LMAIDI

ko'ra, jamoalar
v a k i l l a r i
maslahatlashib,

nomli 13- o'rta matabda «Siz «Kamalak»ni bilasizmi?» nomli ko'rik -tanlovning tuman bosqichiga yakun yasaldi.

«Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakati homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarni birlashtirib turibdi. Bolalar va o'smirlarning hammasi bo'lib ish tutayotganlari, ularni aniq maqsadlarni ko'zlashga undamoqda. «Ma'naviyat va ma'rifat», «Oltin meros», «Ekologiya», «Vatanparvar», «Mehr-shafqat», «Umid», «Salomatlik» singari yo'naliishlarda tarbiya maktabi bo'layotgan «Kamalak» ka'a'zobo'lgan tengdoshlarining havas qilsangiz arziydi. Tanlov o'tkazilgan kuni 13- o'rta matabning bayramona bezatilgan katta zaliga tumanning eng faol o'quvchilari hamda ularning ustozlari yig'ilishdi.

-Maktabimizga xush kelibsiz! Kelgan izlaringizga gul bitsin. Bugun sizlar emas, bilimlaringiz bellashadigan kun. Barchangizga omad tilayman, - dedi mezbon - matabning rahbari Qidir Bekjonov.

Shundan so'ng, boshlovchi qiz Gulshoda Qarshiboyeva yig'ilganlarni tanlov shartlari bilan tanishtirdi. 1- shartga ko'ra bellashuv qatnashchilari «Kamalak» bolalar tashkiloti haqida hamda o'zlarining turarjoyi, o'qiyotgan maktablari to'g'risida qisqacha ma'lumot berib o'tishdi.

Musobaqaning 2- sharti savol- javob edi. Bu shartga

hay'at a'zolari tomonidan tuzilgan savollarga javob berishdi. Keyingi shartsahna ko'rinishib o'lgani uchun o'quvchilarning iqtidori, noyob qobiliyatlarini sahnada o'z aksini topdi. O'quvchilar bugunning muammolarini teran nazar bilan ko'rib, tadbirga yaxshi tayyorgarlikda kelishgani aniq bo'ldi. Qo'shiqlar mujassamligida dildagi gaplar aytildi. Sardorlar bellashuvni esa jamoalarning taqdirini hal qilib qo'ydi.

-Bugun hech kim mag'lub bo'lgani yo'q, - deydi «Kamalak» bolalar tashkilotining tuman bo'limi raisi Saidakbar Ahmadjonov. - Sababi, bugungi tanlovga hududlararo bellashuvlarda qatnashib, ming bir chig'irididan o'tgan g'oliblar yig'ilishgan. 13- o'rta matabning «Kelajak» guruhi tanlovning viloyat bosqichiga yo'llanma oldi. Bugun o'zingiz guvoh bo'lganiningizdek, ertanining egalari bo'lgan o'smirlarimiz bilimli tengdoshlari bilan hamfikr.

Ha, «Kamalak»ka a'zo bo'lgan har bir o'quvchi kelajakda ona-yurt uchun munosib farzand bo'lishlariga ishonchingiz ortadi.

Shu kuni tanlovda qatnashgan 2-, 28-, 19-, 32-matab o'quvchilari ham 7 ta yo'naliish bo'yicha maqtashga arzigulik ishlarni amalga oshirmoqda. Tadbir so'ngida esa tanlovda faol ishtirot etgan «Kamalak» ning a'zolariga Toshkent viloyati «Kamolot» yoshlari ijtimoiy harakatining tashakkurnomalari hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Gulbahor ORTIQOXO'JAYEVA.

Iftixor

MENING BILIMLAR MAKONIM


Maktabim boshqa maktablardan o'zining ko'rkni va saviyasi bilan ajralib turadi. Bizda sinfonalar yorug' va shinam, shu bilan birga tozalikka rivoja qilinadi. Yana sport maydonchalari keng va katta bo'lib, turli sport to'garaklari faoliyat ko'rsatadi.

Maktablararo o'tkaziladigan shaxmat-shashka musobaqalarida maktabdoshlarim doimo faxrli o'rirlarni egallahadi.

Fursatdan foydalanim, meni bilimlar makoniga yetaklagan birinchi ustozim Xurshida opa Matyoqubovaga, matematika fani o'qituvchisi, sinf rahbarim Manzura opa Mo'minovaga, adabiyot o'qituvchim, she'riyatning sir-asroridan voqif qiluvchi ustozim Saodat opa Yusupova va boshqa ustozlarimga o'z minnatdorchiligidimni izhor qilmoqchiman. Chunki ular bilim berish bilan birga o'z mehrlarini ham hadya qilishadi. Har bir dars, har bir soatga puxta tayyorgarlik ko'rishib, biz o'quvchilarga olam-olam bilim berishadi.

Dilfuza TOJIYEVA, Xorazm viloyati, Urganch shahridagi 14-o'rta matabning 7- «D» sinf o'quvchisi.





Har yili Respublikamiz o'quvchilarining bilimini charxlash, aql-zakovatini sinovdan o'tkazish maqsadida «Kitobxon» ko'rik-tanlovini o'tkazish yaxshi bir an'anaga aylanib qoldi. Bu yilgi tanloving Respublika bosqichi bizning litseyimizda o'tkazildi. Tanlov juda qiziqarli o'tdi. Uni tomosha qilar ekanmiz, bilimdon, zukko va kitobxon tengdoshlarimizning naqadar ko'pligidan quvondik.

KITOBXON DO'STLARNI BAHSGA CHORLADIK

Tanlov yakunlandi. Oliy o'rinn qoraqalpog'istonlik tengdoshlarimizga, birinchi o'rinn buxorolik, ikkinchi o'rinn esa farg'onalik yosh kitobxonlarga nasib etdi. 12 ta viloyat vakillari orasidan ikkinchi o'ringa munosib deb topilgan Farg'ona viloyati, Dang'ara tumanidagi 36 - sonli maktab o'quvchilaridan Sanobar Qo'chqorova, Charos Begmatova, opa-singil Dilshoda va Dilnoza Usmonovalarni suhbatga tortdim:

-Bu bizning birinchi g'alabamiz emas,-deyishdi ular faxr bilan.- Namozali Mahkamov boshchilik qilayotgan maktabimiz o'quvchilarjudako'plab tanlovlardaqatnashib, faxrli o'rnlarni egallab kelishyapti. Dugonamiz Sanobar Qo'chqorova «Prezident asarlari bilimdoni» tanlovingiloyatbosqichida ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni olgan bo'lsa, «Siz huquqingizni bilasizmi?» tanlovida ham 2-o'rinni bizning maktabga nasib etdi. Epchil va chaqqon o'quvchilarimiz sport musobaqalarida ham bir qator yutuqlarni qo'lga kiritib kelishyapti. Bunday yutuqlarimizda ustozlarimizdan Qo'shivoy Isomiddinov, Saodat Mardonova kabilarning xizmatlari beqiyosdir. Ayniqsa, bugungi tanlovda muvaffaqiyatga erishishganimiz uchun qalbimizda kitobga mehr uyg'otgan ustozimiz Klaraxon opa O'rino dan behad minnatdormiz...

Biz esa barchamizga ham ma'naviy, ham madaniy ozuqa ular shahgan ushu tanlov tashkilotchilaridan minnatdormiz.

Gulruhbegin SAYFIDDIN qizi,

A.Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyi talabasi.

JAHON KELAJAK QO'LIDA

Yaqinda «Bunyodkor» yoshlar teleklubida bolalar bayrami munosabati bilan ajoyib tadbir bo'lib o'tdi. Bu tadbirda shahrimizning barcha tuman maktablarining faol o'quvchilarisi ishtirok etishdi. Ular «Jahonda tinchlik bo'lsin!» mavzusida rasmlar chizib, bellashishdi.

Faxrli o'rinn sohiblari Prezident sovg'alari bilan taqdirlandilar. Qolgan bolalar ham sovg'a va muzqaymoqlar bilan siyandilar.



Turli she'riy mushoiralar, topishmog'u savol-javoblar ham bo'lib o'tdi. Butadbirda Yakkasaroy, Mirzo Ulug'bek, Hamza tumani o'quvchilarisi faol ishtirok etishdi. Bu tadbirda barcha bolalar xursand bo'lib qaytishdi. Men ham bellashuvda «Jahon kelajak qo'lida» mavzusida rasm chizib ishtirok etdim.

Dilrabo DO'STQOBILOVA,

Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118- maktabning

6- «A» sinf o'quvchisi.

ISTIQOLOL MEVALARI

olaman. Litseyimiz sharq tillariga ixtisoslashgani uchun bizga shu yerda arab, fors, hind, yapon, xitoy koreys hamda ingliz tillarini mukammal o'rganyapmiz. Men qadimiy tillardan biri bo'lmish arab tilini o'rganyapman. Tengdoshlarim tuman va shahar miqyoslarida o'tkazib kelinayotgan turli

YOSH SPORTCHILAR

Respublikamizda bolalar sportiga katta ahamiyat berilayotgani biz sport ishqibozlarini juda quvontiriyapti. Maktabimiz sport maydonchasi ham qayta ta'mirlanib, ko'plab musobaqalar uyushtirilyapti. Yaqinda ana shunday musobaqalardan biri mahallamiz maydonchasida o'tkazildi. Voleybol bo'yicha mahallalararo o'tkazilgan bellashuvda Hasanmrgan, Shukurmrgan, Ravvot, Yuqoriravvot, Paxtakor kabi sakkizta mahallaning yosh sporchilari qatnashdilar. Birinchi o'rinni olgan Hasanmrgan, ikkinchi o'rinni olgan Sho'rg'aqir, uchinchi o'ringa loyiq topilgan Shukurmrgan mahallalari bolalari g'oliblik nashidasini surdilar.

O'z mahallasi sharafini himoya qilishga astoydil bel bog'lagan bellashuv qatnashchilarining asosiy maqsadlari faqatgina g'alaba-yu sovrinlar emasdi. Bir-birlari bilan samimiyo do'stlashib, mahoratlarini yanada oshirganlardan behad mammun edilar ular. Sharafli o'rnlarni olgan Muzaffar, Eldor, Mansur, Umid, Asomiddin, Abdurashid akalarning mahoratiga biz ham astoydil havas qildik.

Ravshan NORMURODOV, To'lanboy MANNONOV,

Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi


3 - o'rta maktabning 8 -sinf o'quvchilari.

KOLLEJIMIZGA MARHABO

Har bir o'quvchi maktabni tamomlar ekan, uning oldidagi eng katta muammo, kasb tanlash va shu kasbga ixtisoslashgan maskanlarida ta'lum olishdir.

Men ham shu qatorda o'tgan 2002 yil maktabni tamomlab, muammoga duch kelgan edim. Shifokorlik kasbiga bo'lgan qiziqishim meni Toshkent shahri, Shayxontohur tumanida joylashgan O'quv davolash kompleksining Tibbiyat kollejiga chorladi. O'qishga kirkach, bu yerda berilayotgan ta'lum, yaratilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlar biz talabalarni juda ham qoniqtirardi. Tibbiyotni mukammal o'rganmay turib hech kim shifokor bo'la olmaydi.

Bu esa biz talabalar va kollejimiz o'qituvchilarining shiorlari hisoblanadi. Kollejimizda ta'lum olayotgan talabalar uch yo'naliш: doyalik, hamshiralik va ortopedik stomatologiya sohalari bo'yicha mutaxassisliklarga ega bo'ladilar. Har bir mutaxassislik bo'yicha uch yil bilimlarini oshiradilar va klinik fanlar asoslarini chuqur, mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun esa ta'lum maskanimizdagi fan nomzodlari, oliy toifali o'qituvchilar, katta tajribaga ega bo'lgan shifokorlar bizlarga yaqindan yordam berishadi.



Shuningdek, kollejimizda zamonaviy kompyuterlar bo'lib, ular internet tarmog'iga ulangan. U orqali esa biz tibbiyotga oid ko'pgina ma'lumotlarni olamiz. Bu Tibbiyat kollejini bitirganlarga davlat nusxasidagi diplom beriladi. Bu yerni bitirganlar oilaviy poliklinikalarda, doyalik komplekslarida ishlashlari mumkin. O'qishni davom ettirmoqchi bo'lgan talabalar Tibbiyot Oliygohlarida ta'lum olishlari mumkin.

Aziz do'st va dugonalarim, agar sizda kollejimizga qiziqish uyg'ongan bo'lsa, albatta tashrif buyuring!

Feruza OBIDOVA,

Toshkent shahar, UDK Tibbiyat kolleji 1- bosqich 30 - guruh talabasi.

Mustaqillik yillarda Respublikamizda ko'plab yangi-yangi maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bonyod etildi. 1998 yil 22 sentabrda tashkil qilingan Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti qoshida tarix va sharq tillariga ixtisoslashgan litseyda 30 dan ziyod professor o'qituvchilar, 10 nafardan ziyod fan nomzodlari o'quvchilarga bilim berib kelishyapti. Men ham mana bu bilim maskanida tahsil

olimpiadalarda qatnashib, sovrinli o'rnlarni egallab kelishyapti. Yaqinda bo'lib o'tgan shahar olimpiadasida litseyimiz o'quvchisi Nosirjon tarix fani bo'yicha ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Men ana shunday namunali litseyning bitiruvchisi ekanligimdan faxrlanaman. Kelajakdag'i orzuim - ustozlarim bergan saboqlarni oqlab, malakali jurnalist bo'lish.

Bahrom SOATOV.

«Obod deganda, xalqimiz, millatimiz nafaqat ko'r kam va chiroqli, shu bilan birga, aynan tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat, ahillik, qut-baraka hukmron bo'lgan joylarni tasavvur qiladi».

Islom KARIMOV.

Mahallamning ko'chalari tinch, Tinch yashaydi har bir xonodon.

Mehnat qilar erta-yu kech,

Tinim bilmas yoshu qari hech.

Ha, chindan ham mahallamiz ko'chalari tinch. Sababi, har bir xonadontinch, totuv yashaydi. Keksalar



hurmatda, yoslar esa izzatda.

Yozgi ta'tilda «Do'rmon» va «Qahramon» mahalla bolalari bekor yurmaydigan bo'ldilar. Chunki mahallamiz faollari biz bolalar uchun bir nechta sport to'garaklarini tashkilladilar. Qo'shni mahalla bolalari

TINCH YASHAYDI HAR BIR XONADON

bilan birligida karate, qo'ljangi, futbol kabi to'garaklarda o'quvchilar gavjum. Bundan ota-onalar, keksalar ham xursand.

Yaqinda «Mahallamiz bolalari» musobaqasida «Do'rmon» va «Qahramon» mahalla bolalari o'zaro bellashdilar. Ikki mahalla bolalari bir-birlaridan bo'sh kelmadilar.

Ular nafaqat mahallalararo balki tuman, viloyat musobaqalarida ham bellashyaptilar.

Mahallamiz bolalarining bo'shvaqlari mana shunday qiziqarli, mazmunli o'tayapti. Buning uchun, albatta mahallamiz faollariga katta rahmat.

Gulchiroy MAMATOVA, Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi Alisher Navoiy nomli 3- o'rtta maktabning 7- «D» sinf o'quvchisi.



PEDAGOG TARBIYACHINING VAZIFASI

Men mahallada pedagog-tarbiyachi bo'lib ishlayman. Pedagog -tarbiyachining vazifasi yoslar va voyaga yetmaganlar o'rtasida tashkiliy-tarbiyaviy ommaviy sport ishlarni tashkil qilish, turli xildagi huquqbazarlik va jinoyatlar sodir etilishining oldini olish chora tadbirlarini amalga oshirib, ularni jismonan baquvvat qilish, voyaga yetkazish va vatanparvarlik ruhidha tarbiyalash ishlarni olib boradi.

Jumladan, biz yashaydigan Hamza tumanidagi «Binokor» mahallasida ham «Chevar» klub tashkillangan. Unga 206-212-maktab o'quvchilar jalb qilingan. «Chevar»da «Mohir qo'llar», «Pazandachilik», «To'quvchilik», «Yosh raqqosalar» kabi to'garaklar ishlaydi.

Ayni yoz mavsumida pedagog tarbiyachining ishi yanada ortadi. Bolalarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlay olish ham ko'proq pedagog tarbiyachiga bog'liq. Shunday ekan, o'quvchilarning yozgita'tillari yanada mazmunli bo'lishi uchun qiziqarli

t a d b i r l a r


2003 yil - Obod mahalla yili



uyushtirishni rejlashtiryapmiz.

Rafiq YUNUSOVA,
Hamza tumanidagi «Binokor» mahallasining pedagog-tarbiyachisi.

YULDUZGA HAVAS QILING



«Dilorom moti» degan so'zni bilmaydigan shohmot muxlisi topilmasa kerak. Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda o'zini shatranj bilimdoni hisoblaydigan shoh muhim o'yinda tang ahvolga tushib qoladi. Shunda malika Dilorom qo'liga soz olib, ikki ruhni qurban berish evaziga raqibini to'rt yurishda mot qilish yo'li borligini qo'shiq qilib kuylaydi...

Birgina shu rivoyatning o'zi Sharqda ayollar shatranj-shohmotni sevib o'ynaganidan dalolat beradi.

1989 yilda tug'ilgan jizzaxlik tengdoshingiz Yulduz Hamroqulova shohmot bo'yicha qizlar o'rtasida uch karra O'zbekiston birinchiligi g'olib. Osiyo birinchiligining bronza medali sovrindori, Jahon birinchiliklari qatnashchisi.

Yulduzning ilk ustoz - otasi, sport maktabining shohmot murabbiysi Oybek Hamroqulovdir. U dastlab turli darajadagi musobaqlarda o'z bilimini sinovdan o'tkazdi. So'ngra, 10 va 12 yoshgacha bo'lgan qizlar o'rtasida o'tkazilgan mamlakat birinchiliklari g'olib bo'ldi, jahon birinchiliklari qatnashdi. O'z yutuqlari bilan atrofdagilar olqishiga sazovor bo'ldi.

Yulduz Hamroqulovaga yanada ulkan yutuqlar tilab qolamiz.

BOBOLAR BOR BO'L SIN

Abduhamid Ahmadhoji otani mahalladagilar juda



hurmat qilishadi. Hoji ota mahalladagi barcha yaxshi ishlarga bosh bo'ladilar. Ular yetmishdan oshganlariga qaramasdan, hamon tetik va bardamlar. Doimo shunday bo'lib yursinlar.

Ayni paytda hoji ota Sobir Rahimov tuman Uyg'ur madaniyat markazining raisi bo'lib ishlaydilar.

Abduhamid Ahmadhoji ota Akmal Ikromov tuman Muallim ko'chasidagi 2- uyda hukumatimiz ruxsati bilan ro'yxatdan o'tib, qariyalar uchun masjid qurbanlar. Mahalla oqsoqollari shu masjidni «Abduhamid jo'me» deb nomladilar.

Bugungi kunda ota sakkiz nafar farzandlari, o'ttiz olti nafar nabiralari, o'ndan ortiq evaralari davrasidalar. Ularga faqat yaxshilikdan, yaxhilardan so'zlaydilar. Yaxshi inson bo'linglar, deydilar.

Yaxshi ko'chalarga yetaklovchi mana shunday otalar, bobolar hamisha bor bo'lsin.

Alisher ABDULLAJONOV.

CHINAKAM TARBIYA O'CHOG'I

Obod mahalla ezgulik beshigi, chinakam tarbiya o'chog'i, deyishadi mahallamiz oqsoqollari. Shuning uchun ham mahallamizda tez-tez tadbir o'tkaziladi, tarbiyaviy soatlari uyuştiliriladi.

Yaqinda men ta'llim-tarbiya olayotgan 9- o'rtta maktab atrofida joylashgan mahallalar bilan birligida «Obod mahallam» mavzuida tadbir bo'lib o'tdi. Unda mahalla faollari, maktabimiz o'qituvchilar, ota-onalar, Ichki ishlar xodimlari ishtirot etishdi.

Ayniqsa, Ichki ishlar xodimlari bilan bo'lgan savol-javoblar bizda katta taassurot qoldirdi. Ayrim o'quvchilar o'rtasida ro'y berayotgan jinoyatlar va uning sabablari haqida alohida to'xtaldilar.

Shu bilan birga «Obod mahalla yili»da amalga oshirilgan va oshiriladigan ishlar haqida ham aytib o'tildi. Jumladan, mahalla faollari sportni rivojlantirish maqsadida bolalar uchun yetarli va kerakli shart-sharoitlarni yaratib berishga va'da berdilar.

Dilorom O'ROZBOYEVA,
Jizzax viloyati, Do'stlik tumanidagi Hamid Olimjon nomli 9- o'rtta maktabning 11- sinf o'quvchisi.



SIVOV KUVLARI

Miraziz A'ZAM

Maktab sahnasi
uchun

(Davomi. Boshi
o'tgan sonda).

Kichkina:

- Shunda nimasini yaxshi ko'rarkanmiz busuvning... Yovvoyi bo'lsa...

O'tkir:

- Odam bir narsani yaxshi ko'rsa, uni oxirigacha yaxshi ko'radi, biron nuqsonni ko'rib aynib qolmaydi. Biz bu suvni go'zal tabiat uchun, o'tloqlari, daraxtlari, qushlari, sehrali sadolari uchun yaxshi ko'ramiz.

Kichkina:

- Ha, qushlari ham ajoyib bu yerlarning.

O'tkir:

- Iye, qara, qara, qarqunoqlar bilan bulbullar urushyapti.

Kichkina:

- Ajabo, nega urushayotgan ekan bular?

O'tkir:

- Iye, sen ular nega urushishini bilmaysanmi?

Kichkina:

- Bilmayman. Faqat bulbuldan qarqunoq, qarqunoqdán bulbul chiqibdi deganlarini eshitganman. Demak, ular qarindosh bo'lishlari ham mumkin.

O'tkir:

- Yo'q, yo'q, unday emas. Qarqunoqlar tumshug'i egik. U yirtqich qushlar oilasiga kiradi. Bulbul kichkina qush... Gullar, butalar ichiga, xushbo'y joylarga in quradi. Shunga havas qilsa kerak qarqunoq.

Kichkina:

- Qarqunoqda ham kakkuning odati bormikan?

O'tkir:

- Kakkuning qanday odati bor?

Kichkina:

- Kakku chittakning iniga tuxum qo'yib ketadi. Chittak uni o'z tuxumi deb o'ylab, tuxum bosib, bola ochib chiqaraveradi. Keyin uni katta qiladi. Kakku ulg'ayib, boshqa joyga uchib ketadi.

O'tkir: - Bolasini birovlarining eshigiga tashlab ketadigan ba'zi yosh oilalarga o'xsharkan-da!

Kichkina:

- Qarqunoq ham bulbulning iniga tuxum qo'yib ketmoqchi bo'larmikan?

O'tkir:

- Ehtimol... Har qalay bulbulning o'z holicha yashashiga halaqt beradi.

Kichkina:

- Odamning kakkusi qursin!

O'tkir:

- Odamning qarqunog'i qursin!

Kichkina:

- E, baribir hech nima yovvoyitabiatning go'zalligiga yetmaydi.

O'tkir:

- Juda unchalik emas. Odamning qo'li bilan tartibga solingan tabiat o'ziga xos va balki ming chandon go'zalroq.

Kichkina:

- Balki sen haqdirsan. Ammo men bu yerlarni jonomidan ham ortiqroq yaxshi ko'raman. Bu joylar yuragimga sirli bir orziqishmi, nima deb atashni bilmadim-u - allaqanday hayajon o'yg'otadi. Mana, shohko'chalarni yoki Markaziy maydonni olaylik. Hammayoq tartibli. Gullar shohmot usullarda o'stirilgan. Chiroylar, sarishta. Ammo ular ko'zimni quvontirma ham, qalbimda hayajon uyg'otmaydi. Nega shunday ekan?

O'tkir:

- Shoирга o'xshab so'zlaysan-a!

Kichkina:

- Bu to'g'rida she'r ham yozgandim:

Esimni tanibmi, o'sibmi qaydam,

*Sayilgoh bog'larni xushlamay
qo'ydim.*

*Bir turda kesilgan xiyobon,
maydon,*

*Asfaltso'qmoqlarni xushlamay
qo'ydim.*

*Menga keng daralar, uchirim,
jarlar,*

*Baland tog'lar uzra qoyalar
bo'lsa.*



*Erkin shamollarda erkabal o'sgan,
Bo'yi bo'yimday o't moyalar bo'lsa.*

*Tog'lar yonbag'rida devday savlatli,
Yuz yoshli yong'oqlar shoxida yotsam.*

*Ko'nglimda mudragan tengsiz
ulfatim,*

*Shirin xotirlarni suhabatga
tortsam.*

O'tkir:

- Sen ham Oqbolaga o'xshab yolg'izlikni sevib qopsan-da.

Kichkina:

- Oqbolaning yolg'izlikni sevishi bilan mening yolg'izlikni sevishim o'rtasida zehnim ilg'agan bir farq bor. Oqbola ajralib turishni, biz unga yalinih ketidan yurishimizni xohlaydi, nazarimda. Bu qandaydir manmanlikmi-yey, boshqami, bilmadim... Mening yolg'izlikni sevishimda olamni idrok etish istagi bor- dunyonni ko`rish quvonchi... Sirli bir shodlik... Bu tuyg'ularning oti yolg'izlikni sevishmi? Masalan, men sen bilan tinimsiz

gaplashgim, tuyg'ularimni bo'lishgim keladi.

O'tkir:

- Meni hijolat qilma, betamiz... Men ham, ochig'ini aytsam, sen bilan...

Kichkina: (gapni bo'lib)

- Bugun Uchuvchidan nima gap chiqarkin, deb seni ko'rgim kelib turuvdi.

O'tkir: (Kichkinaning yelkasiga qo'l tashlaydi).

- Eyy, Azizim, Kichkina ! Sen menga qanday azizligingni bilsayding!

Kichkina:

- Tavba... Nega hech kimdan darak yo'q?

O'tkir:

- Biz ikkida uchrashmoqchi edik. Hali ikkiga ikki daqqaq bor. Keladi. Hammasi keladi. Xavotir olma.

Kun issig'ida terga botgan Qodir keladi.

Qodir:

- Mana, men ham keldim.

Kichkina:

- Yaxshi keldingmi, Qodir?

O'tkir:

- Qalaysan, Bochka? Jiqqa terga botibsan. Issiq kunda dumalash oson emas.

Qodir:

- Parvo qilma, men xomsemiz emasman. Gursullatib ketmon urish, palaxsa-palaxsa devor ko'tarish ham qo'limdan keladi. Terlash- bu irlsiy belgim. Bizda ter ko'p. Yurganda terlab yuramiz. Choyxo'rmiz shekilli.

O'tkir:

- Ko'povqat yeysan, betamiz. Salomatlik uchun ko'p ovqat yeyish shart emas.

Qodir:

- Ortiqcha ko'p yemayman shekilli?

O'tkir:

- Ha, endi Otellogayetolmaysan. Udarsdayam non chaynab o'tiradi. Tavba, nega muncha ko'p non yerkin? Tanaffusda uxlab qolishi ham ana shu doim to'q yurishdan.

(Ortiq kirib keladi.)

Ortiq:

- Nega meni g'iybat qilyapsan?

O'tkir:

- G'iybat emas, bor gap.

Ortiq:

- Do'st kamchilagini, bor gap bo'lsa ham, o'zi yo'qligida aytsa g'iybat deyiladi.

O'tkir:

- Beye...

Ortiq:

- Men senga aptyapman. Ishonaver.

O'tkir:

- Nega senga ishonaverishim kerak?

Ortiq:

- Menga otam aytgan.

O'tkir:

- Nega otang aytsa ishonaverishim kerak?

Ortiq:

- Eski kitoblardan o'qiganlar.

O'tkir:

- Nima deyilibdi eski kitoblarda?

(Davomi bor).

Dil nomalaridan satrlar

Yoshlik... Inson umrining takrorlanmas eng go'zal fasli. Xuddi ilk saharda bir aksa urib, bodroqdek oq rangli yuzlarini ochgan bodom gullariga o'xshaydi.

Ana shu yoshlik shijoatini, uning otash nafasini yurakdan his etib, satrlarga bitayotgan tengdoshlarinidan

"KIMNI ETMAS BU HAYOT SHAYDO, KIM SHE'R YOZMAS MENING YOSHIMDA?..."


tahririyatimizga har kuni ko'plab dil izhorlari bitilgan maktublar keladi. Ushbu maktublarinizi Feruza Jalilova, Feruza Odilova, Muharrama Pirmatova, Gulyuz Valiyeva, Ma'suda Irisnazarova singari tahririyatimiz jonkuyarlari qunt bilan o'qib, ular orasidan teran fikrli, rang-barang she'rлarni, qiziqarli hikoya va ertaklarni, tu r l i mavzulardagi maqola va boshqotirmalarni saralab gazetamiz sahifalarida yoritib boradilar. Kelayotgan maktublarning deyarli 75 foizi faqat she'r bitayotgan yosh ijodkorlardan. Darhaqiqat, maktab partasida sizning yoshingizda barcha-barcha tengdoshlarinig qalb qo'rini she'riy satrlarga ko'chirishi tabiiy. Biz bundan juda quvonamiz. Shoira opangiz Umida Abdusazimova aytganlaridek: « She'riy yurakkina she'rni his qila oladi».

Ha. aziz bolajonlar, ijod gulshaniga ilk qadamlarini qo'yib dadil odimlayotgan qanchadan-qancha qalam ahillarini sizning sevimli gazetangiz « Tong yulduzi » kashf qildi, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Zero, katta daryolar shubhasiz kichik irmoqlardan boshlanadi.

Bugun biz tahririyatimizga kelayotgan maktublarning ayrimlari xususida fikr yuritmoqchimiz.

« Assalomu-alaykum, sevimli do'stimiz « Tong yulduzi » gazetasini! Sening har bir soningni men va do'stlarim intazorlik bilan kutib o'qib boramiz, - deya o'z maktubini boshlabdi Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumanidagi 12- o'rta maktabning 6- « V » sinf o'quvchisi Ravshanbek Naxshvanov. - Ayniqsa, sahfalarinagi rang-barang ruknlar menga juda yoqadi. Shuningdek, xalq



sevgan xonandalarning hayoti va ijodi haqida ko'proq o'qishni, o'zbek kinosi yangiliklaridan muntazam xabardor bo'lishni, har soningda test savollaridan berilib borilishini istardim. Bu teng doshingiz

Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi 19- maktabning 11-»V» sinf o'quvchisi Shahnoza Haqqulovaning ginali maktubini o'qib, biroz hayratga cho'mdim.

« Salom tahririyat xodimlari, men sizlarga ikkinchi

Bobolarim so'zi bor.

Yoki: « Onalar » she'ridagi

Qorong'u tun...

Ko'kda oy nurin sochar, Atrofda yo'q hech qandayin un, Faqatgina onalar bedor.

Bu misralar sodda, ravon tilda yozilgan. O'qiganingizda qalbingiz hayajonga to'ladi.

maktubiga qo'shib o'zi chizgan multfilm qahramonlarining ajoyib rasmlarini yuboribdi.

Jizzax viloyati, Jizzax tumanidagi 23- o'rta maktab o'qituvchisi D. Olimova shunday yozadi: « Sizlarga maktub yozishimdan maqsadim, men rahbarlik qilayotgan 5- sinf o'quvchilari she'r yozishga juda qiziqishadi. O'quvchilarimdan Iroda Ziyoyeva va Shahlo Asrorovalarning yozgan she'riy na'munalarni sizlarga yuborayapman. Iltimos, o'quvchilarimni rag'batlantirish uchun gazeta sahifalarida ayrim she'rлarni chop ettirsangiz ». Kuyunchak ustozning o'z o'quvchilariga bo'lgan e'tiboridan ochig'i biz juda xursand bo'ldik.

QUYOSH NURI

*Erta tongda turdim men,
Quyoshjonne ko'rdim men.
Quyosh nurin sochardi-Baxri-dilni ochardi.
Insonlarga ularshib baxt,
Ko'z oldiga qo'yardi taxt.
Yerni munavvar etgan,
Quyoshjonga ming rahmat.*

Iroda o'z she'rda quyosh nurini yaxshi ta'riflagan, lekin ikkinchi to'rtlikdagi « Ko'z oldiga qo'yardi taxt » misrasida she'rni to'ldirolmagan. Shu sababli ikkinchi to'rtlikni qayta ishlash lozim.

ONA MEHRI

*Issiq demay saratonni,
Sovuq demay qahrattonni.
Bolam deydi hormay-tolmay,
Mehnat qilib toldim demay.
Mehrin berib farzandiga,
Olar doim o'z bag'riga.
Farzandini o'ylaydi,
Kelajagin so'ylaydi.*

Shahloningshe'rдаги биринчи то'рликининг уч qatori juda ham ta'sirchan yozilgan, darhol o'quvchini o'ziga jalb etadi. Ko'z oldingizda beixtiyor o'z onangiz namoyon bo'ladi. Lekin she'rning keyingi qatorlari bo'shashib ketgan. Shahlo ham o'z she'rini keyingi misralarini qaytadan to'ldirib ishlasa ajoyib she'r bo'ladi.

bor maktub yozib o'z

she'rларимни yuborayapman. Gohida xo'rligim kelib ketadi. Nahotki biz qishloq yoshlariga she'rларимизни gazeta va jurnallarda yoritishimizga imkon bo'lmasa. Tuman gazetasida esa onda-sonda chiqarishadi. Yoki yaxshi she'rлар yozmaymizmi? »

Singlimiz gazeta-jurnallarni to'liq o'qib bormasal kerak. Birgina « Tong yulduzi » gazetamizning sakkiz sahifadan iborat haftalik sonining 80 foizini aynan qishloq yoshlarining hayoti va ijodini yoritishga bag'ishlaymiz. Shahnoza, siz albatta « Tong yulduzi » gazetasining har sonini muntazam o'qib boring, ana shunda respublikamizning turli viloyatlarida yashab, qalam tebratayotgan yangi - yangi ijodkor tengdoshlarinig ijodi bilan yaqidantanihasiz. Sizning « Yodimdasiz » hamda « Ohuning ko'zidek chaqnaydi ko'zing » deb nomlangan she'rлaringiz ta'sirchan bitilgan, fikrlash qobiliyatizingiz kuchli, ammo ba'zi bir qatorlarda she'rning mazmuni o'zgarib ketgan.

*Buvijonim ugraydi tun zulmatida,
Tin olmay ugraydi ko'tarolmay bosh.
Sog'indim, sog'indim ko'rgim keladi,
Berahmlik qilmagin ey ona quyosh.*

She'rda quyoshga nisbatan « berahmlik » so'zi yoki « Bunchalar yovuzsan, ey ona tuproq » misrasida tuproqqa nisbatan « yovuz » so'zleri nojoiz ishlatalgan. Buning o'rniga « Yonog'imdan oqar ikki qatra yosh », « Jonimni o'rtaydi azobli, firoq » kabi misra qo'llanilganda she'r yana ham to'liqroq bo'lardi. Shahnoza, hech ikkilanmasdan qalam tebratavering, ijod cho'qqlari mashaqqatli dovonlardan iborat.

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 9- umumiyo'rtta ta'lif maktabining 8- « A » sinf o'quvchisi Gulmira Rahimova ham o'z maktubida 4-sinfdan boshlab she'rлар mashq qilishi to'g'risida yozgan. Gulmiraning « G'ijduvoniy » she'rda shunday satrlar bor:

Bu muqaddas tuproqda,

Ne buyuklar izi bor.

Har yaproq shivirida,

Namangan viloyati, Pop tumanidagi

4- o'rta maktabning 6- « G » sinf o'quvchisi Jumagul Jo'rayeva o'z maktubida yoshligidan she'rлар mashq qilishi to'g'risida to'xtalib, she'rларidan namunalar yuboribdi.

Qishlog'im nomi uyg'ur,

Yashayman juda mag'rur, - degan satrlar bilan boshlanuvchi « Qishlog'im » she'rda o'zi yashayotgan adirlar bag'ridagi qishloq manzaralarini tasvirlashga intilgan. Ushbu she'r yaxshi boshlangan, qolgan qatorlari esa bir-birini to'ldirolmagan. Jumagul she'r qofiyalari, vaznlari ustida ko'proq ishlashi lozim.

Samarqand viloyati, Pastdorg'om tumanidagi 2- o'rta maktabning 5- « A » sinf o'quvchisi Doston Abduhamidovning tahririyatimizga yulorgan she'rлари diqqatimizni o'ziga tortdi:


DAVRAMIZGA MARHAMAT

*Qo'shiq aytamiz bizlar,
Jo'r bo'ling o'g'il-qizlar.
Davramizga marhamat,
Ko'payamiz biz albat.*

Dostonjonning she'rлари samimi, o'quvchi qalbiga tez yetib boradi. Uning « Oppoq qor », « To'rt fasl » deb nomlangan she'rлари ham ta'sirchan yozilgan.

*Ijodning mashaqqatli yo'llariga endigina q a d a m
qo'yayotgan siz
a z i z
bolajonlarimizga
hech ikkilanmang,
yozavering, deya
baralla aytgimiz
keladi. Yaxshi
she'r birdan
yaratilmaydi, u
bedor, beoram kunlar, tunlar bag'rida
yaratiladi. Biz esa siz aziz bolajonlardan
yana ko'plab maktublar kutib qolamiz.*


Jamila ERDONOVA.



Turon zamin farzandlarimiz

IJODNING MANBAI-BOLALIK, SAMIMIYAT...

Taniqli qozoq adibi Nurg'ali Qadirboyev 1950 yilda Janubiy Qozog'iston viloyatining Maqtaaral tumanida tug'ilgan. Shu kungacha adibning 20 dan ziyod kitoblari qozoq va rus tillarida nashr qilindi. Qator hikoya va mashqlari o'zbek tiliga tarjima etilib, Respublikamizning yetakchi gazeta-jurnallarida chop etilgan. Adib xalqimiz hayotini yaxshi biladi, «Nurli jo'l» gazetasining maxsus muxbir sifatida Respublikamiz shahar-qishloqlarini ko'p oralagan.



Sirdaryo viloyati hokimliklarida xizmat qilgan. Ayni paytda u Yetti soydagi Universitetda prorektor vazifasida ishlayapti. Qozog'iston yozuvchilar uyushmasining a'zosi, uyushmaning 2002 yilgi mukofotining sovrindori.

N.Qadirboyev bolalar uchun ham ijod qiladi, yosh avlodning musaffo qalbini, ruhiyatini chuqur anglaydi, samimiyyat tasvirlaydi. Hikoya, novella va qissalarida qozoq xalqi hikmatlari, pedagogikasi, etnografiyasi, til boyliklari kuchli namoyon bo'ldi. Ko'plab hikoyalari qozoq maktablari uchun nashr qilingan darslik va xrestomatiyalardan o'rinn olgan.

BOLALIKKA SAYOHAT

Alimjonning dadasi ovulga borishni yoqtiradi. U bugun tug'ilib o'sgan qishlog'iga jo'nab ketar ekan, Alimjonnini ham o'ziga hamroh qilib oldi.

- Odam tug'ilib o'sgan uyiga kelsa, biram yayrab ketadiki, - dedi u yo'l bo'yni Alimjonnini gapga tortib.

- Men ham qishloqqa borsam xuddi onadan yangi tug'ilganday mazza qilaman.

Shu kuni Alimjon bobosi bilan buvisidan ham bir dunyo yangilik eshitdi. Bobosi bilan buvi kecha qo'shni ko'chadagi bir qarindoshlarinikiga qudachaqiriqa borib kelishibdi.

- Quda bo'layotganlar yaxshi odamlar ekan, - deb biri qo'yib, bira maqtashdi boba bilan buvi. - Bir paytlar bizda valib bo'lib ham yurgan ekan, shularni eslashedik. Sen u paytda dasturxonga choy tashib yurarding, Alimjon esa tug'ilmagan edi. O'sha yillar uygayam kelgan ekan.

- Serikboy og'a emasmi?

- Ha, ana, xuddi o'zi.

- Men u paytda kolxozning mashinasini haydardim, bir necha marta Serikboy og'aniyam uyiga tashlab kelganman. «Yur uya, choy ichib ket» deb, bir necha marta uyida non-tuz ham totganman, - o'tgan kunlarni esladi dadasi.

Ovuldagilar shunday - kim, qachon kelgan, qanaqa kiyim kiygan, nimalar deb gapirgan barabarini uzoq paytlargacha gapirishib yurishadi.

Alimjonning otasi uzoq yillar kolxoza xizmat qilgan. Yuzlab odamlar, vakillaru, katta-kichik rahbarlar bilan birga ishlab, suhablashgan, fikrmaslahat qilgan. Ular orasida turli xil odamlar bo'lgan, albatta-birov oshirib-toshirib gapiradi, yana birovlar yulduzini yulduziga keltirib gapiradi. Indamay suv

yutgan baliqday to'msirayib o'tiradiganlarni ham, o'zgaga so'z bermay, poygaga tushgan otday yolg'iz chopadiganlarni ham ko'rgan bobo.

- Elning ichida yurib, har xil odamlarni ko'rdik-a...

- Hozir zammon o'zgargan, ota, - deb gapga o't qalaydi Alimjonning dadasi. - Masalan, vakil degan gap hozir qolmadi. Hozir har kim o'ziga o'zi xo'jayin, qimirlagan qir oshar, deganlariday, harakat qilgan odam kunini ko'rayotir. Bugungiday «bo'l-ho-bo'l» deb, qamchi o'ynatib turgan hech kim yo'q...

Choydan keyin nabira, ota, bobo qishloqni aylanishdi. Qishloq uylarining g'ir tevaragi- poliz. Yoz bo'lgani uchun hamma narsa ko'karib, pishib yotibdi. Havosini ayt, havosini! Dehqonlar polizni oralab, ekkan qovun- tarvuzini, jo'xorisini oralab yuribdi. Dehqonlarga mazza-da!

Alimxon shunday demoqchi edi, bobosi undan oldinroq:

- Burunlari shu yerlar ham bo'sh yotardi, - deb qoldi. - Hech narsa ekilmasdi. Ekilsayam, birov jon kuydirib qaramasdi.

- Esimda, - deb qo'ydi dadasi ham.

- Non degan muqaddas ne'mat osonlikcha yetishtirilmasligini, peshona teri, mehnat tufayligina dasturxonga kelishini bugungi bozor zamoni hammaga bildirdi- qo'ydi, - bobosi o'ziga - o'zi gapirganday so'zlandi. - Qiyin, biroq mehnat qilgan odamning turmushi yaxshilanishiga hamma tushunib qoldi.

Rostdan ham, Alimxonning dadasi yoshligida qovun- tarvuzni, olma-o'rik, bodring deganlarni bozordan sotib olgan ekan. Demak, poliz ekinlarini tomorqada o'stirish mumkinligini bular yo bilmagan yoki dehqonchilikni shunday sharofatli kasb deb o'ylamagan, haytovur ovuldagilar yerga mana endi- endi qarayapti. «Yerni ag'darib, urug' sepib, o'sishini - pishishini kutib yurasanmi, ana, bozorga borsang, hamma narsa bor», deyishgan-da, yuraverishgan. Endi qarashsa,

KENJA BOBO

Kenjaning old tomonidagi ikkita tishi tushdi-yu gapirganda og'zi xushtak chaladigan bo'lib qoldi. Shundan qo'lini darrov og'ziga qo'yib oladi. Hozir ham qo'lini og'ziga qo'ygancha ko'chaga chiqdi. O'rtoqlari Javlon bilan Jasur to'p tepishayotgan ekan. Kenjani ko'rgan Javlon:

- Ana, darvozabon chiqdi, - deya uning oldiga yugurib keldi. Og'ziga qo'lini qo'yib olganini ko'rib, hayron bo'ldi.

- Og'zingni nimaga yopib olding, og'riyaptimi?

- Mm-m, - dedi Kenja og'zini ochmay.

- Gapir, nima bo'ldi?

- Yo'q, gapirmayman, - dedi Kenja. Og'zi esa yana hushtak chalib yubordi. Uni ko'rgan Javlon kulib yubordi.

- E, Kenja darvozabon, buvamga o'xshab boba bo'lib qolibsan, dedi. Bu gapni eshitgan Jasur ham ularning oldiga yugurib kelib, Kenjaning og'ziga qaradida:

- To'g'ri, boba bo'lib qolibdi, - deb tasdiqladi. O'rtoqlarining mazax qilib aytgan bu gaplaridan Kenjaning jahli chiqdi.

- Sening dodang chol! - dedi alam bilan.

- Ha, dodam chol, - e'tiroz bildirmadi Javlon. Ular «Erkakning tishi tushganda boba, ayloning tishi tushganda momo bo'ladi», deganlar.

Kenja o'rtoqlarining bu gaplaridan xafa bo'lib, uyiga kirib ketdi...

Oradan oylar o'tdi. Kenjaning tishlari chiqdi. Lekin o'rtoqlari uni «Kenja boba» deb ataydigan bo'lib qolishdi. Bora-bora Kenjaning o'zi ham bu nomga ko'nikib ketdi.



Karim RAHIM.

ovul-boyagi ovul emas, o'zing ekib, o'zing undirmasang, hamma narsani bozordan olaverishga cho'ntak chidamaydi. Mehnat qilganlar esa dasturxonni ham bezatayapti, ortganini bozorgayam chiqarayapdi. Avvalgiday kun yoyilgan to'shakda ag'anab yotadigan davrlar o'tib ketgan. Uchov-to'rtovlon bo'lib olib hangomalashadigan ayollar ham ko'chalarda ko'rinnmaydi hozir. Hammasiyam yo dalada ishlayapti yo bozor- o'charga ketgan. Bo'sh o'tirgan-turgan odamning o'zi yo'q xullas. Tirikchilik, tirikchilik-da...

Alimxon dadasi bilan ovul aylanib bir narsaga amin bo'ldi- ovul shu yerda, joyida turibdi ekan. Faqat odamlarda harakat kuchayibdi. Hamma odam sergak tortib, mehnatga yopishibdi. Dadasi bolaligi o'tgan ovulni oralab yayradi. Uni ko'rgan ovuldosh jo'ra-yoronlari, teng -qurdoshlariyam suyunib qarshi olishdi, ko'ngli-bag'ri erib, uyiga, dasturxonga taklif qilishdi. Kuni kechagina yalangoq yugurib o'tgan qishloq yo'llari bugun asfalt to'shalgan, tep-tekis. Bari tanish, bari yurakka yaqin manzara. Bolalik zavqi haliyam turibdi, haliyam qalblarni nurlantiradi.

KO'CHATLAR

Navro'z oyi kirishi bilan bobom boqqa chiqib ketadi. Yangi ko'chatlar o'tqazadi, eskilarini butaydi, chopiq qiladi, sug'oradi, xullas ishi ko'p. Men ba'zan maktabdan bo'sh paytlarimda boqqa chiqib, bobomga ko'maklashaman.



- Manov olmurt daraxtini sen tug'ilgan kunlarda ekkan edim, - deydi bobom qaddini tiklab. - Endi qara, qanaqa daraxt bo'ldi, tepasiga chiqsang, butun ovul kaftdagiday ko'rinish turadi.

Bu yil ko'chat eka boshlagan kunimiz yomg'ir yog'di. Biz shoshildik.

- Tuproqda nam ko'p bo'lsa ko'chatlar tez ko'klaydi, - deb bobom gapirib qo'yadi.

Ko'chatlarni o'tqazib bo'ldik. Bobom ikkimiz ustimidagi ho'l ko'ylaklarni almashtirish uchun yuga kirdik.

- Bobo, sovqotdim, - dedim men. Bobom:

- Unday bo'lsa isinib ol, - dedi-da, ustimga ko'rpa yopib qo'ydi. Keyin o'choqqa gugurt chaqib, sut qaynata boshladidi. Bobom gugurt chaqaman deb uringani sayin avvaliga negadir olov olishavermadidi. Men bunga hayron bo'ldim.

- Nega yonmayotir, boba? Ho'lmi?


- E, yo'q, bolam, - bobom derazadan tashqariga qarab, daraxt novdalarining shivir-shiviriga biroz quloq tutib turdi-da, menga qaradi. - Odamlarning aytishlariga qaraganda, o'rmondagi yog'ochlar yomg'irda qolsa, yoki shamolda junjikib sovqotsa, uy ichidagi gugurt cho'plari chaqilmas emish, o'chib qolaveradi, deyishadi. Daraxtlar sinsa, nolib yig'lasa, gugurt cho'plari ham ularga qo'shilib yig'larmish, ho'l bo'lib, olov chaqmasmish. Shuning uchun ham qurigan bitta daraxt o'rniga o'nta yangi ko'chat ekkan-juda savobli ish, deyishadi-da, bolam.

- Rostmi shu, quruq yog'ochlar ham bir-biriga shunday qilib hamdardlik bildirar ekan-da. Gugurt ham yog'ochdan bo'ladi-ku, boba, to'g'rimi?

- Eskilardan qolgan gapni aytdim-da, bolam. Uxla endi, dam ol.

Bobom aytgan naqlni -gugurt cho'plari tashqarida qolgan daraxtlarga achingani uchun yomg'irla kunlarda olov chaqmasligini o'ylab yotib, uxlab qolibman. Saldan keyin uyg'onsam, tashqaridagi yomg'ir, shamol bosilibdi. Sut pishibdi. Yangi ko'chatlarning novdalarida tomchilar xuddi billurday osilib turardi...

Nurg'ali QADIRBOYEV.



1. Polsha pul birligi
A) zlotiy
B) frank
C) yevro
D) marka

2. Nobel mukofoti nechanchi yil ta'sis etilgan?

- A) 1951 yil
B) 1945 yil
C) 1941 yil
D) 1944 yil

3. Quyosh sistemasida ko'k-yashil rangga ega bo'lgan sayyora

- A) Neptun
B) Mars
C) Venера
D) Yupiter

4. Sulton Ahmadinasjidiga yerdajoylashgan?

- A) Afina
B) Istanbul
C) Bag'dod
D) Buxoro

5. Germaniyaliklar yangi yilni qay tarzda kutib olishadi?

ARALASH

- A) yurib
B) o'tirib
C) sakrab
D) baqirib

6. Mendeleyev jadvali qachon kashf etilgan?

- A) 1869 yil
B) 1856 yil
C) 1867 yil
D) 1884 yil

7. Napoleon necha yoshda general unvonini olgan?

- A) 21 yoshda
B) 28 yoshda
C) 24 yoshda
D) 23 yoshda

8. Hujayra necha qismidan iborat?

- A) 3
B) 4
C) 5
D) 7

Zulqaynar FAYZULLAYEV, Ilhom TO'YCHIYEV, Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi 5-o'rta maktabning 8-sinf o'quvchilari.

KARTOSHKА QUYMOQ

Kerakli masalliqlar: 1 kg. Ochil dasturxon

kartoshka, 0,5 piyola sut,

1 osh qoshiq tuz va shakar, 2 ta tuxum, 0,5 piyola un.

Kartoshkani

qirg'ichdan

o'tkazib, suvi

siqib olinadi.

Ustiga qaynatilgan sut, tuz,

shakar, tuxum va un
s o l i n i b
aralashtiriladi.

Oz-ozdan issiq tovada pishirib
olinib, murabbo bilan tanovvul
qilinadi.



SHIRIN KULCHA

Kerakli masalliqlar:
200 gr. margarin, 200 gr. shakar, 3-2 ta tuxum, 200 gr. smetana, 0,5 choy qoshiqda osh sodasi.

Margarin, shakar, tuxum aralashtirib, soda solingen smetana aralashatirilib yumshoq xamir qoriladi. 15-

20 daqiqa tindirilib, 1 sm. qalinlikda yoyiladi. Uni turli shaklda kesib olinib, 25-30 daqiqa mobaynida p i s h i r i b olinadi.



Mehrinoz ALIMOVA, Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 1-maktabning 7-sinf o'quvchisi.

BO'YIGA: 1. Eng sersuv daryo. 2. O'rta Osiyo davlatlaridan biri. 3. Ekvator chizig'ini ikki marta kesib o'tgan daryo. 5. Turk avtosi. 6. Rossiya futbol jamoasi. 8. Eng uzun daryo. 10. Niderlandiya. 12. Qush. 17. Jonivor. 18. Hasharot. 19. Afrika cho'li. 20. Ham shoh, ham shoir. 22. O'rta Osiyo davlati. 23.

O'limas... (san'atkor familiyasi.) 24. Eng katta orol. 28. Viloyatlardan biri.

ENIGA: 4. Estrada guruhi. 7. Fransiya poytaxti. 9. Viloyatlardan biri.

11. Gul. 13. Surxondaryo viloyatiga qo'shni davlat.

14. Angliya futbol jamoasi. 15. Cholg'u asbobi.

16. Cho'kib ketgan afsonaviy kema. 21. Tojikiston poytaxti.


25. Matematik atama. 26. Aloqa.

27. Ranglar jilosi. 29. To'laganova (tennischi ismi.) 30. Estrada guruhi. 31. Raj Kapur vatani.

32. O'zbekiston Maradonnasi.

Tuzuvchi:
Nuriddin HAYDAROV,
O'zbekiston Milliy Universiteti
qoshidagi Sobir Rahimov
Akademik litseyining 1- «D»
kurs o'quvchisi

Tuzuvchi:
Nuriddin HAYDAROV,
O'zbekiston Milliy Universiteti
qoshidagi Sobir Rahimov
Akademik litseyining 1- «D»
kurs o'quvchisi



KITOB JAVONINGIZGA MUNOSIB TUHFA

Aziz bolajonlar! Iqtidorli bolalar yozuvchisi Muhayyo To'laganova o'zining «Qaldirg'ochlar», » Eng yaxshi sovg'a kabi asarlari bilan sizga yaxshi tanish. Muhayyo opangizning asli kasbi o'qituvchi. U Yangiyo'ldagi 3- maktabda ishslash bilan birga badiiy ijod bilan ham jiddiy shug'ullanadi.

Yaqinda Muhayyo To'laganova o'zining «Savob» nomli yangi hikoyalar to'plamini chop ettirdi. Quyida ana shu kitobdan

«O'g'il bola» nomli hikoyani o'qisiz.

O'G'IL BOLA

- «O'g'il bola»!
- «Erkakshoda»!
- «Umid toshkentlik- toshini terar»...

- Umida bu iboralarga beparvo. Ha, u sochini kestirib, ko'pincha uyda kalta shim bilan futbolka kiyib yuraveradi. Bog'chaga singlisini olgani velosipedda boradi. Sport jonusi dili. Televizordan faqat futbol o'yinlarini ko'radi. Jadval tuzib, o'yin natijalarini belgilab boradi. Gazeta, jurnallardan Renaldo, Revaldo, Roberto Karlos, Luish Figo, Mirjalol Qosimov kabi mashhur o'yinchilarning suratini qirqib olib, ularning hayot yo'lini o'rganadi. Jismoniy tarbiya darsini yaxshi ko'radi. O'qituvchisiga yengil atletika, og'ir atletika, GTO normativlari haqida savol beraverib bezdiradi.

Umida aslida odobli qiz, boshqa fanlarni ham yaxshi o'zlashtiradi. Faqat uning yurish-turishi, o'zini tutishi qishloq joyida g'alati tuyuladi.

Nima bo'ldi-yu Umida bir haftacha matabga bormadi. Sinf rahbari Sojida opa yoniga qizlardan olib, ularnikiga bordi. Umidalar qishloq bilan shahar birlashgan yangi mahallaning oxirida turishar ekan. Yo'lda Sojida opa Umidaning dadasi haqida gapirib berdi:

- Qishloqni gazlashtirish bo'yicha rais Faxriddin akani shahardan ko'chirib kelgan.

Mehmonlar manzilga yetib kelganlarida Umidani tanimay qolishdi. U egniga haydovchilarning kombinzonini kiyib, mashina cho'qalayotgan otasiga yordamlashardi. Ota-bola mehmonlarni ichkariga taklif etishdi. Faxriddin aka Sojida opaga ayoli betob bo'lib, kasalxonaga tushib qolganini aytdi. Mehmonlar uy to'rida osiqlik Umidaning uchta singlisi bilan tushgan suratini tomosha qilishdi. Keyin Umida dugonalaridan o'tilgan darslarni so'rab oldi. Umida mehmonlarni kuzatayotib, o'zi parvarish qilgan atirgullardan ularga berdi.

Muhammed TO'LAGANOVA.

Boshqoturnalar

Nota	→							
Yuz	→							
Yill	→							
Meno	→							
Zamon	→							
Sayroq qizi	→							
son	→							
Til	→							
Yozuv qurolli	→							
Hollqv	→							
Katta sur'uvayoni	→							
Kishnak olmosni	→							
Lazza	→							
Boshdag'i zo	→							
Bor emas	→							
Samo	→							

**DO'STLIK**

Qo'shiq aytib erta-kech,
Charchamaymiz bizlar hech.
Qo'l ushlashib yuramiz,
Do'stlar davra quramiz.

Do'stlik o'zi bir billur,
Sinib qolsa tuzalmas.
Do'stlik agar chin bo'lsa,
Uni hech kim buzolmas.

Ziyoda MIRZA JONOVA,
Toshkent shahar, Shayxontohur
tumanidagi 254 - maktabning
3 - sınıf o'quvchisi.



Yozning jazirama kunlaridan biri edi.
Mohira ham hamma tengdoshlari kabi
yo'ziga tilda.

-Oyijon, zerikib ketyapman, **MUZQAYMOQ YEYOLMAGAN**

(Voqeiy hikoya)

tog'amning qizlari bilan o'ynayman, -deb qoldi. Mohira oilaning kenjatoyi, erkatoysi bo'lgani uchun ham ota-onasi uning gaplarini yerda qoldirishmasdi. Shunday qilib, erta tongda onasi bilan yo'lgatushadigan bo'lishdi. Mohira o'sha kuni kechasi tush ko'rni. Tushida buvisi go'yo uning kelishini istamagandek, g'amgin ko'rindi. Tushini onasiga aytgandi, buving seni juda sog'inib o'tirgandirlar-da, deya yaxshilikkayo'ydi onasi...

Tushga yaqin ular yo'lgatushdilar. Juda issiqlab ketgan Mohira oyisidan muzqaymoq olib berishini iltimos qildi.

-Hozir juda shoshib turibmiz. Buvungnikiga boraylik, tog'alarin olib chiqib berishadi,-dedi onasi.

Boshqa payt bo'lganda xarxasha qilib bo'lsa ham oldiradigan qizaloq

Bizda oltita ko'z bor,
Ikkisi ko'rar yaqqol.

Ko'rolmaydi qolgani,
Qani, sanab ber? G'an.

(Jizzaxning ko'z, ikkisi tushshakning, ikkisi

Shahlo MAMARASULOVA,
Jizzax viloyati, Forish tumanidagi
Egizbuloq qishlog'i.

TOPISHMOQLAR

Joni boru qoni yo'q,
Soni bor, sanog'i yo'q.

Malohat DO'SATOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi
tumanidagi 18 - o'rta maktabning
6 - «V» sınıf o'quvchisi.

**HAYVONLARNING
DEGANI
KIYIK**


Men kiyikman, kiyikman,
Odamlarga suykman.
O'zim juda beozor,
Iltimos, bermang ozor!

**SICHQONCHA**

«Chi-chi» sichqon bo'laman,
O'zim «jasur» bolaman.
Mushukni ko'rgan hamon,
Chiqib ketay deydi jon. .

TOSHBAQA

Men toshbaqa, toshbaqa,
Osti- ustim toshdaqa.
Juda sekin yuraman,
Uzoq umr ko'raman.



Malohat DO'SATOVA,

Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi

18 - o'rta maktabning 6 - «V» sınıf o'quvchisi.

KO'RGANIMIZ TUSH EKAN

Doshqozonda sumalak,
Biqir-biqir qaynaydi,
Atrofida bolalar,
Dikir-dikir o'ynaydi.

Qozonni kovlab buvim,
-O'tin tashla, Xol,-deydi.
-Biroz sabr qilsangiz,
Tongda bo'lar bol,-deydi.

Charchab uxlab qolibmiz,
Tursak, qozon bo'sh ekan.
Sumalak, bolajonlar,
Bular bari tush ekan.

Muxlisa ABDULATIPOVA,

Andijon viloyati, Bo'z tumanidagi

26 - huquqshunoslik va iqtisodiyot
litsey internatinning 7 - «A» sınıf
o'quvchisi.

Ona yurting - olin beshiging

TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislari:

**O'ZBEKISTON
MATBUOT VA
AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

BOSH MUHARRIR:

Umida ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Shuhrat AHMEDOV,

Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa

MUSURMONOVA,

Qahramon

QURONBOYEV,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir
o'rinnosari),

Po'lat MO'MIN,

Mukarrama

MURODOVA,

Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

“Sharq” nashriyot -
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset
usulida bosildi.

Adadi - 33729

Korxona manzili:

“Buyuk Turon”

ko'chasi, 41.

Buyurtma № Г - 502

Gazetani

Muharrama

PIRMATOVA

sahifalandi.

Navbatchi:

Jamila

ERDONOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75

SIGIRNING ICHIDA**O'qituvchi:**

-Bobur, qani
ayt-chi, sut
q a y e r d a
s a q l a n g a n d a
achimaydi?

O'quvchi:

-Sigirning ichida-da...



Sadoqat

BOZORQULOVA.

DADAMNING SOCHI YO'Q

O'qituvchi o'quvchiga tanbeh berdi:

-Nodir, nega bugun sochlaringni
taramay kelding. Xuddi hozirgina
uyqudan turgan odamga o'xshaysan-a?
-Tarog'imni topolmay qoldim.
-Dadangning tarog'i-chi?
-Dadamning sochi yo'q-da...

Muxlisa YO'LDOSHEVA,

Farg'onha viloyati, Hamza shahridagi

20 - o'rta maktabning

5 - «G» sınıf o'quvchilari.